ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ
THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT
ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ
ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-2, (February) 2024
Journal homepage: https://imfaktor.com/index.php/tjrd

MAMATQULOV Rustam Ubaydullayevich
Toshkent kimyo texnologoyalar institute
katta o'qituvchi

Axmedov Xamdam Alikulovich
Toshkent davlat pedagokika universiteti
Falsafa fanlari nomzadi
dotsenti

YOSHLAR MANFAATI - YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISH

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatda yoshlarning tutgan o'rni, mavqiye, vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Yoshlarga jamiyatda e'tiborsizlik ayanchli ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mustabid tuzum misolida asoslab berilgan. Yoshlarga xos ehtiyoj va manfaatlarni himoyalsh – Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim omili ekanligi ko'rsatilgan. Avvalo milliy ong, milliy o'zlikni anglash, milliy manfaatni anglash ruhiyatini tarbiyalash, ularda intellektual salohiyatni oshirib borish, keng hayotiy-falsafiy fikrlashni tarbiyalash, zamon talablarini idrok etaoladigan shaxsga xos bilim va yaratuvchilik faoliyatini yanada qaror toptirish yoshlar manfaati amalga oshirish.

Kalit so'zlar: milliy ong, mavqiye, milliy o'zlik, manfaat, e'tiborsizlik, milliy manfaat, ruhiyatini tarbiyalash, intellektual salohiyat, keng hayotiy-falsafiy fikrlash, idrok.

Jamiyat taraqqiyotida turli ijtimoiy gruhlar, qatlamlar bilan bir qatorda yoshlarning o'rni va roli benihoya salmoqlidir. Chunki, ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlarning davomchisi yoshlardir. Biroq shunga qaramay dunyoning turli qit'alarida yoshlar ehtiyoji va manfaatlari yetarli darajada himoya etilgan deb bo'lmaydi. "Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar 3 milliard bo'lib, shulardan yarim milliardi qashshoqlikda umr kechirmoqda. 100 million bola umuman maktabga bormaydilar. Har kuni 30 ming yosh bola ochlikdan jon taslim etmoqda. Har kuni 7 ming yosh kishilar VICh/SPID bilan zararlanmoqdalar. Jahondagi barcha ishchi kuchining to'rtdan bir qismini yoshlar tashkil etgan holda, shulardan salkam yarmi ishsiz" [1, B.9].

Albatta, yoshlar taqdiridagi ushbu achinarli holni XX-asrdagi ikki qutbli sistemaning g'oyaviy-mafkuraviy kurashining anchagacha saqlanadigan asorati deyish mumkin.

Ma'lumki, sobiq yakka mafkura sharoitida yoshlar o'z mustaqil faolligini, tashabbuskorligini namoyon qilish imkoniyatidan mahrum etilgan edi. Mustaqillik ana shunday imkoniyatlarni yoshlarga yaratib berdi. Yosh avlodni boshlangan ezgu ishlarning davomchisi sifatida har tomonlama qo'llab–quvvatlash, hayotda to'g'ri yo'l ko'rsatish lozimligi Sh.Mirziyoevning qator asarlarida ko'rsatib o'tilgan. "O'zbekiston yoshlar ittifoqining obro'si va ta'sirini oshirish uchun mamlakatimizda yoshlar manfaatini ta'minlashga qaratilgan ishlarda uning ishtirokini har tomonlama kengaytirish zarur" [2].

Mana shu ulkan ishlarni yanada jonlantirish, yangi darajalarga ko‘tarish yoshlarimizni jamiyatdagi o‘rni va vazifalarini aniqlashtirish ular ehtiyoji va manfaatining amalga oshishi hamda himoya etilishi bilan bog‘liqdir. Mamlakatimizda yoshlar ehtiyojlari va manfaatlarini har tomonlama ijtimoi-huquqiy kafolatlashga qaratilgan Davlat dasturi ishlab chiqildi. Shunga muvofiq yurtimizni barcha joylarida turli chora tadbirlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Yoshlarni ta’lim olishlari uchun zamonaviy ko‘rinish va mazmunga ega bo‘lgan bir qator amaliy ishlar qilinmoqda, bu boradagi kamchiliklar tanqidiy baholanmoqda. “...ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi zamonaviy usullarini jumladan, axborot - kommunikaniya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilganligi...” [3], buning yaqqol dalilidir. Ushbu yaratilayotgan imkoniyatlar yosh avlodni jamiyatimizning hal qiluvchi ijtimoiy kuchiga aylantirish bilan bog‘liq yoshlar manfaatlarining kafolatidir.

Yosh avlod o‘tmishdan ijobiy qadriyatlarni va salbiy illatlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib olishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi bozor islohatlari davom etayotgan ochiq siyosat sharoitida tashqi dunyodan mintaqamizga iqtisodiy, madaniy-texnikaviy boyliklar, axborotlar kirib kelishi bilan birga inson ma’naviy-ro‘hiy dunyosiga ijobiy yoki salbiy ta’sirini ko‘rsatuvchi ma’naviy qadriyat yoki mafkuraviy tahdidni inkor etib bo‘lmaydi.

O‘tish davri sharoitida yoshlarni jismoniy, ma’naviy-ruhiy shakllanishiga, ular ehtiyoj va manfaatlariga mos kelishini, ular hayotiy rejalari, kayfiyatlari va ideallari qandayligiga jamiyat tomonidan har doim izchil e’tibor berib borilishi murakkabdir. Shuning uchun yoshlar tarbiyasi avvalo, oilada qaror topadi. Ya’ni, yoshlarga dastlabki ijtimoiy tarbiyaviy ta’sir oilada ota-ona bag‘rida amalga oshiriladi. Yosh-o‘smir ota-onaning ijtimoiy mavqey, kasb-korligi kabi jamiyatda bajaradigan vazifalari ta’sirida shakllana boradi. Ota-onaning ma’naviy-ruhiy qiyofasi, umumiy madaniy darajasi unga tarbiyaviy namuna vazifasini o‘taydi.

Bizga ma’lumki, o‘smirlik 14-16 yoshgacha bo‘lsa, yoshlik davomiyligi 30 yoshgacha hisoblanadi. Yosh o‘smir asosiy ma’naviy-axloqiy ozuqani 16 yoshgacha oilada yoki davlat tarbiya muassasida o‘zlashtiradi.

O‘smir balog‘atga yetgach qolgan ijtimoiy ta’sirni mustaqil hayotga qadam qo‘yishi bilan ma’lum bir mehnat faoliyati, kasb egallashi ya’ni ijtimoiy munosabatlarga kirishishi jarayonida o‘zlashtira boshlaydi. Bunda yoshlar ikkinchi marta ijtimoiy klassifikatsiyalanadi. Bu o‘rinda ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari umuman, ijtimoiy muhitning yoshlarga ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda yoshlar ijtimoiy ishlab chiqarish tizimida, madaniy hayotdagi o‘rniga, mehnat faoliyati turiga, moddiy-ma’naviy manfaatdorlik taqsimotiga va boshqa belgilarga ko‘ra tafovutlanadi. Shunga muvofiq, yoshlar jamiyat ijtimoiy tuzilmasini to‘ldirib, ijtimoiy hayotga yangicha bir jon baxshida etib boradi.

Bunda har bir yoshning bilim-malakasi, tajribasi, kasb mahorati, madaniyat darajasi va milliy o‘zligini anglashi ham muhim o‘rin tutadi. Umuman, yoshlar o‘zlarining mehnat xarakteri, bilim-malakasi, dunyoqarashi, kasb turi, jamiyatdagi ijtimoiy mavkei jihatlari bilan qanchalik farqlanmasinlar, ularning barchasiga xos umumiy xususiyat – ularning avvalo, yoshlar ekanligidadir. Ilmiy manbalarda umumtan olinganidek, yoshlar u yoki bu ijtimoiy tabaqaga, tuzilmaga tegishli bo‘ladi.

Biroq, yoshlarning bunday mansubligi ularning barchasiga xos bo‘lgan – yagona vatan, davlat, milliy mansublik kabi bir butun jamiyatning milliy manfaatlariga umumiy daxldorligini ta’minlashga yo‘naltirilganligi bilan muhimdir. Buning uchun yoshlarning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy va huquqiy jihatdan kamol topishiga yanada e’tibor berish zarur bo‘ladi. Ular ongida tadbirkorlik, ishbilarmonlik, umuman moddiy-iqtisodiy yaratuvchilik kabi iqtisodiy bilim va malakalarni tarbiyalab borish jamiyat rivojida muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Yoshlar - katta avloddan vorisiylik qonuniyatiga ko‘ra jamiyatni ijtimoiy, ma’naviy – madaniy qabul qilib oluvchi meros sohibidir. Shu ma’noda yoshlar tarbiyasida tarixiy xotiraga ega bo‘lish, o‘tmish ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan ilmiy-falsafiy asarlarni o‘zlashtirish, milliy-etnik o‘ziga xoslikni anglash, til, urf-odatlar, an’analar hamda turmush tarzini bilish hozirgi davrning dolzarb talabidir.

Mustaqillik avvalo, milliy o‘zlikni anglashdan, millatparvarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi ma’naviy-axloqiy tamoyillardan boshlanadi. Shu kabi qadriyatlarni yoshlarga o‘rgatish, ular ongiga singdirish jamiyatimizning milliy manfaatlariga to‘g‘ri keladi. Yoshlarning turli ehtiyoj va intilishlarini ular umumiy manfaatlariga monand holda milliy manfaatlarimizda hisobga olish jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim omildir.Ular ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror topishini yanada jonlantirish lozim bo‘ladi.

Yoshlarning aksariyatiga xos bo‘lgan - barcha yutuqlarga birdaniga erishib qolishdek, qiziqqonlik yoki sabrsizlik kabi qiziqish va intilishlar qanchalik ular manfaatining yoshlarga xos haqqoniyligini bildirmasin, bunday yutuqlarga faqatgina zaxmatli mehnat, sabr va irodaga yo‘g‘rilgan bilim asosida hamda milliy va umuminsoniy manfaatni ko‘zlab qilingan sayi - harakat tufayli qo‘lga kiritish mumkinligi, barcha davrga xos hayot haqiqatidir.

Demak, yoshlarda mustaqillik sharoitida yangi O‘zbekiston jamiyatini bunyod etish tafakkurini mustahkamlash, buning uchun avvalo milliy ong, milliy o‘zlikni anglash, milliy manfaatni anglash ruhiyatini tarbiyalash, ularda intellektual salohiyatni oshirib borish, keng hayotiy-falsafiy fikrlashni tarbiyalash, zamon talablarini idrok etaoladigan shaxsga xos bilim va yaratuvchilik faoliyatini yanada qaror toptirish yoshlar manfaati amalga oshishining zarur sharti bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маматқулов Рустам Убайдуллаевич, & Ахмедов Хамдам Аликулович. (2020). Ёшлар маънавиятида маънавий хавфсизликни таъминлаш–миллий манфаатларнинг муҳим жиҳати. Polish science journal (Issue 8(29), 2020) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2020. – 69-74 p.

2. Akhmedov Khamdam Aliqulovich. (2020). Spiritual and ideological issues of ecological humanism. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. December, 2020-VI. ISSN 2181-9750. 243-252 p.

3. Khidirov Kholmurod, & Akhmedov Khamdam. (2020). The Role of Philosophy in Setting Out The Worldview Of The Values Of Modern Youth. International Journal of Research Available at. Volume 07 Issue 06. June 2020. 103-109. https://journals.pen2print.org/index.php/ijr/

4. Khamdam Akhmedov, & R. Mamatkulov. Uzbekistan 's foreign policy for the implementation of our national interests. Middle European Scientific Bulletin, Volume 12 May 2021. 31-35

5. Khamdam Akhmedov. (2021). A New Stage Of Development, A New Awakening – The Third Renessance Period. The American Journal of Political Science Law and Criminology (ISSN – 2693-0803). February 28, 2021. 111-114. Doi: https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue02-16 импакт фактор